XUDOYNAZAROVA Shaxzoda
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY RAQS SAN'ATINING SAQLANISH MUAMMOLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): XUDOYNAZAROVA SH. Globalizatsiya sharoitida milliy raqs san'atining saqlanish muammolari // Madaniyat ta'limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 9.

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek milliy raqs san'atining tarixi, evolyutsiyasi, raqsning jamiyat hayotidagi ma'naviy-tarbiyaviy o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Raqs plastikasi, raqs harakatlarining tabiiy unsurlarga, turli mavjudotlarning harakatlariga nisbatan taqlidan yaratilishi borasida mutaxassislarning fikrlari, O‘zbekistonda raqs san'atining istiqbollari haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *raqs, san'at, plastika, tarbiya, raqqosa, usul, muqallid, marosim, o‘yin, maqom, nafosat.*

ХУДОЙНАЗАРОВА Шахзода
Заведующая отдел Государственной академии хореографии Узбекистана, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена истории, эволюции узбекского национального танца, духовной и воспитательной роли танца в обществе. Изложении мнения экспертов о пластике танца, создании танцевальных движений с имитацией природных стихий, движениях различных существ, перспективах танцевального искусства в Узбекистане.

Ключевие слова: *танец, искусство, пластика, образование, танцовщица, метод, подражатель, церемония, игра, мугам, изисканность.*

SHAKHZODA Khudoynazarova
Head of Department, State Academy of Choreography of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate professor

CHALLENGES OF PRESERVING NATIONAL DANCE ART IN THE ERA OF GLOBALIZATION

ANNOTATION

The article is devoted to the history, evolution of the Uzbek national dance, the spiritual and educational role of dance in society. The opinions of experts on the plasticity of dance, the creation of dance movements with imitation of natural elements, the movements of various creatures, the prospects of dance art in Uzbekistan are presented.

Key words: *dance, art, plastic, education, dancer, method, imitator, ceremony, play, mugham, sophistication.*

Madaniyat va san'at sohasining rivoji o'z-o'zidan jamiyat rivojiga, jamiyat rivoji esa mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Inson ma'naviyatini yuksaltiradigan, uning ruhiy olamini poklaydigan, ezgu amallarga yo'naltiradigan eng muhim omil bu albatta san'at hisoblanadi. Har bir yaratilgan va yaratiladigan san'at asarlari insonni ulug'lovchi, uning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, o'y-kechinmalarini badiiy tarzda ifoda etadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan bizga ma'lumki, har bir davrda yaratilgan san'at namunalari o'sha davr muhitiga hamohang bo'lgan. Jamiyat va davlatlarning taraqqiy etishi bilan san'at ham turli yo'nalish va turlar bilan boyib borgan.

Eng qadimiy ibtidoiy davrdan to bugunga qadar jamiyat hayoti bilan hamohang yashab kelayotgan raqs san'ati tuyg'ularni harakat va holatlarda, imo-ishoralarda (mimika) shunday nafis ifodalaydiki, hayratlanmay iloj yo'q. Oddiy harakatlarga jon baxsh etish, u orqali badiiy obraz yaratish bilan chinakam raqs asari yaraladi. Raqs, uning tasviri, kompozitsiyasi haqida o'ylab, bir jihatning ikkinchisiga o'tishi, ularning aloqasi mantig'ini tushungandek bo'lasiz. Buni tushunganingizdan so'ng uning uyg'unligi, ohangdorligi kelib chiqadi, mutanosibligi vujudga keladi. Bu raqs san'atidagi eng muhim jihatdir. Shundan rang-barang nafosat namoyon bo'lishi mumkin. Aks holda, u shunchaki badantarbiya, quruq harakatdan iborat bo'lib qoladi. Tussiz, rangsiz harakatlar takrorlanaveradi. Faqat yuqoridagilar hisobga olingandagina raqsda mazmun, ifodaviylik zohir bo'ladi.

Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari rang-barangligi insonni hayratga solarli darajada. Shu kunlarda raqs san'atimizda bir qancha qatlam aniq ko'rinib turadi: kelib chiqishiga ko'ra ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvurlariga aloqador muqallidlar va marosim o'yinlari; bir zamonlar zardushtiylikning ramziy obrazlari va muqaddas kitobi "Avesto" arkonlari bilan bog'liq holda maydonga kelgan raqslar, o'rta asrlarda maqom musiqasi bilan mustahkam aloqada shakllangan mumtoz raqslar; Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hududlarida tarkib topgan Buxoro, Xorazm va Farg'ona raqs uslublari; XX asrda professional va

havaskorlik ansambllari faoliyatida keng rivojlangan xalq sahnaviy raqslari, zamonaviy estrada, sirk, teatr raqslari, bolalar raqsi va hokazo. [1; 170]

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach umumxalq Mustaqillik, Navro‘z bayramlari Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz shaharlarining yubiley sanalari hamda buyuk olimlar, allomalar, davlat arboblarining tavallud sanalari munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tomoshalarida o‘ziga xos maydon raqslari ijrolari ommalashdi. Tabiiyki, bu jarayonlar raqs san'atining barcha turlari, janrlari, uslublari bir-biridan ajratilmagan holda malakali yoki havaskor xoreograflar, xalq va professional ansambllar ijodini bir-biri bilan bog‘lab, o‘zaro uyg'unlashtirgan holda yashab keladi.

O‘zbek raqs san'atining bir-biridan gavda holatlari, qo‘l va oyoq harakatlari, tarkibi, kompozitsion tuzilishi, liboslari bilan farq qiluvchi Xorazm, Buxoro va Farg‘ona maktablarining uslublari aniq ko‘zga tashlanib turadi. Raqs ustalari, baletmeysterlar, raqs ansambllarining rahbarlari ham ushbu raqs uslublarining o‘ziga xosligini, estetik xususiyatlarini hozirgacha sof saqlashga harakat qilib keladi. Xorazm va Buxoroda hozir ham qayroq bilan usul berish, qo‘l va oyoqlarga qo‘ng‘iroqchalar bog‘lab chiqish (zang), Xorazm raqqosalarining jig‘ali qalpoqlari va ko‘krakka taqiladigan bargaklar bilan ijro etish saqlanib qolgan. Buxoro raqqosalarining ko‘pincha zardo‘zi keng ko‘ylaklari va baland qasavali bosh kiyimlari hamon qadrlanadi. Farg‘ona raqslarida esa doira usullari, puxta ishlangan qo‘l harakatlari, jilvalari muhim o‘rin egallab keladi. [2]

Mana shunday boy tarixga, betakror ijro yo‘nalishiga ega bo‘lgan milliy raqs san'atimiz xalqimizning bebaho boyligi sifatida e'tirof etiladi. U inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi, his-tuyg‘ularni tarbiyalovchi vosita bo‘lish bilan birga, ushbu san'at bilan mashg‘ul bo‘lgan yosh avlodning ham jismonan, ham ma'nan yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishtirishi bilan ahamiyatlidir.

Har qanday davr va jamiyatda uning ijtimoiy hayotini san'at o‘zida aks ettiradi. Har bir san'at turi voqelikni haqqoniy, yorqin va o‘zgacha ta'sirchan holda ifoda etadi. Boshqa san'at turlari kabi, raqs san'ati ham insonning diliga huzur bag‘ishlaydi, uni go‘zal va mo‘jizaviy olamga olib kiradi.

San'at turlari ichida raqs san'ati o‘zining murakkabligi va shu bilan birga go‘zalligi, nozikligi va jozibasi bilan insonni o‘ziga maftun etadi. Raqs san'ati o‘zida hayotni badiiy ifoda etadi, inson his-tuyg‘ulari, fikrlarini so‘zlar vositasisiz, faqat harakatlar hamda yuz ifodasi bilan ochib beradi.

Insonning his-tuyg‘ulari va o‘zaro munosabatini tana harakatlari orqali ifoda etish jarayonida shakllanib, rivojlanib kelgan raqs san'ati har bir millatning o‘ziga xos jihatlarini namoyon etadi.

Professional raqqosalar raqs sir-asrorlarini uzoq yillar davomida o‘rganadi. Raqsning eng sodda texnikasini egallagach, uni ijro qilayotganda usulga tushish, qoidaga kirib qolgan shakllarni eslab qolish talab qilinadi. Raqsni o‘rganish nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni egallashni ham taqozo etadi.

"Qomatni tutish" va "mushaklar kuchini taqsimlash" kabi harakatlardagi o'ziga xoslik ham o'zbek an'anaviy raqsi uch mumtoz maktabining har biri betakror ekanligini ko'rsatadi.

Yevropacha mumtoz raqsning dastlabki holatida qomat adl tutilib, oyoqlar mushagi, tizza tarang, yelkalar erkin va tushirilgan, bel tekis, qo'llar mushagi tirsakdan xiyol egilgan bo'ladi.

Farg'onacha raqsda ham oyoq mushaklari tovondan belgacha tarang tutiladi. Lekin bel mushaklari bir oz bo'sh qo'yilib, oyoqlar xiyol bukiladi. Asta qadam qo'yilib, yengil o'tiriladi, tizza o'z o'rniga keladi. Oyoqlarning yengil egilishi tufayli mumtoz raqsdagi kabi kontrapunkt chizig'i belning kichik markaziy qismiga emas, yelka mushaklari bo'ksaga bosim o'tkazadi. Qo'llar erkin yoki yig'ilgan vaziyatda bo'ladi. Farg'onacha raqsda qo'llar "cho'zilgan" bo'lib, ular o'simlik dunyosining badiiy ifodasiga aylanadi. Ya'ni barglar va maysalarning shamolda yengil tebranishini ifodalaydi. Xorazmcha raqslarda esa oyoqlar mushagi kuchi boldirdan tizzaga yo'naltirilib, tizzalar bukiladi. To'qnashuv chiziqlari bel, bo'ksa, tizzalar o'rtasida o'zgarib turadi. Yelka bir oz pastga osilib turadi. Qo'llar ham erkin qo'yilib, panjalar doim nafis harakatlantiriladi. Ularning nozik titrashini ko'rsatish uchun ko'p mashq qilishga to'g'ri keladi.

Xorazm raqslari o'simlik dunyosini emas, balki jonzotlar dunyosini o'zida aks ettiradi. Undagi harakatlarda qushning parvozi, otning chopishi, kaklikning yo'rtishi kabilarni anglash mumkin. Xorazmcha raqsda tananing ayrim harakatlari, undagi murakkab raqs lisoni hayvonot dunyosi hayotini ifodalaydi. Unda makon to'la egallanadi, qomat xuddi uchayotgandek, qo'llar goh keskin, goh nozik harakat qiladi. Xorazmcha raqsda keskin o'tirib-turish, sakrash ko'p. Unda ko'krak mushaklari ko'p bora silkinadi.

Buxorocha raqsda qomatning yelkadan pastki qismi erkin qo'yiladi. Tana harakati davomli va sirli. Uni bajarishda mushaklar kuchi yo'nalishini o'ziga xos tarzda tashkil qilish talab etiladi. Bel qismi orqaga turtib turadi (ispancha raqsdagi kabi). Bu qo'llarning erkin, shiddatli harakat qilishiga yordam beradi. Oyoqlar yarim o'tirish, yarim aylanishga tayyor turadi. Shu asosda oyoqlarning to'la burilishiga imkon yaratiladi. Buxorocha raqslarda farg'onachadagi kabi qo'llar cho'zilmaydi. Ularda tirsaklar qattiq bukilgan holatda bo'lib, panjalar harakati quruqroq chiqadi. Harakatlar va panjalarni qarsillatish musiqaga mos keladi. Qomat adl, sho'xchan, qadamlar esa oddiy bo'ladi.

O'zbek xalq sahnaviy raqsining shakllanishi birinchi galda Asqar hoji Xaydaraliyevning XX asr boshida faoliyat ko'rsatgan ansambli va atoqli raqqos Hamdamxon nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Hamdamxon Farg'ona vodiysi shaharlarida, Toshkent va Samarqandda, 1905-yilda esa kavkazorti mamlakatlarida o'zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo'nilishni boshlab berdi. [3] Ayniqsa, xalq sahnaviy raqsi taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isaxor Oqilov, Gavhar

Raximova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o‘nlab raqs ustalarining, “Bahor”, “Shodlik”, “Lazgi” kabi ansambllarning xizmati katta. Baletmeysterlar va bastakorlarning sa’y-harakati bilan o‘nlab yakka tartibda ijro etiladigan o‘yinlar, duetlar, ommaviy raqslar mamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o‘zbek raqs san’ati zaxirasidan joy oldi. “Tanavor”, “Munojot”, “Katta o‘yin”, “Bahor”, “Pilla”, “Paxta”, “Lazgi”, “Dilxiroj”, “Cho‘pon o‘yin”, “Namanganning olmasi”, “Andijon polkasi” va boshqalar shular jumlasidandir. Ular mumtoz raqslarga aylangan. Shu asosda raqqos va raqqosalarning bir qancha avlodi kamolga yetdi. Raqs uslublari, mahorat asoslari, harakatlar silsilasi avloddan-avlodga o‘tib, yashab kelmoqda.

Bugungi kunda milliy madaniyat, urf odat va an’analar zamiridan uzoqlashish holatlari milliy qadriyatlar tizimiga jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda globalizmning jiddiy xavfi “ommaviy madaniyat” unsurlarini tobora ko‘payib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda san’at va madaniyat orqali inson qalbini poklash, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta ishonch va umid bor. Bu san’atlar tizimida raqs san’ati taraqqiyotini milliy qadriyatlar zamirida shakllantirish va rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash umumdavlat vazifasi darajasida ko‘tarilgan ushbu davrda yuqoridagi kabi davlat dasturlari asosida Mustaqil davlatimizning ma’naviy-ma’rifiy islohotlarida san’at ahlining faol ishtiroki va yoshlarni yurtga sodiq, barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim ahamiyati turli xil tadbirlarda qo‘yilayotgan muammolar va masalalar xususida atroflicha mulohaza yuritish va chuqur mushohada chig‘irig‘idan o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek raqs san’atining tarixiy an’analarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, millatimizning o‘ziga xos sharqona fazilatlari, boy ma’naviyatiga monand raqslarni targ‘ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqs san’atini xalqimizning yuksak ma’naviyati va nozik didiga zid bo‘lgan, yuzaki, noo‘rin taqlidga asoslangan xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avloddan avlodga noyob meros sifatida o‘tib kelayotgan jozibali raqs namunalarini to‘plash, boyitish; xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga bu bebaho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg‘ularini singdirish, ularda milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini yuksaltirishga qaratilgan barcha islohotlarda biz kabi shu sohaning barcha vakillari zimmamizga yuklatilgan mas’uliyatni chuqur anglashimiz lozim.

Faoliyatimizdagi kamchiliklar, muammolarni birlashib bartaraf etish, yangidan yangi marralarga erishish, muvaffaqiyatlar qozonishda birdam bo‘lishimiz zaruratdir. O‘zbekiston nufuzini dunyo hamjamiyatida yanada yuksaltirish, o‘z san’atimiz orqali millatimizning boy tarixiy an’ana va urf-odatlari, betakror madaniyati va san’ati borligini doimo namoyon etishimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan munosib foydalanishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- Toshkent: Fan, 1975 y. 170 b.

2. Globallashuv jarayonida xoreografiya san’ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy –amaliy anjumani materiallari to‘plami. –Toshkent: Iqtisod – moliya nashriyoti, 2012 y.

3. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001. 87 b.